

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**JUMANIYAZOVA ZULFIYA AITBAYEVNA**

**TARBIYAVIY ISHLAR JARAYONIDA KO‘ZI OJIZ VA ZAIF KO‘RUVCHI**  
**BOLALARNI OILAVIY-QO‘SHNICHILIK MUNOSABATLARIGA**  
**TAYYORLASH METODIKASI**

**13.00.03-Maxsus pedagogika**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Chirchiq - 2026**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Jumaniyazova Zulfiya Aitbayevna**

Tarbiyaviy ishlar jarayonida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni oilaviy-  
qo‘shnichilik munosabatlariga tayyorlash metodikasi..... 3

**Жуманиязова Зулфия Айтбаевна**

Методика подготовки незрячих и слабовидящих детей к семейно-соседским  
отношениям в процессе воспитательной работы ..... 21

**Jumaniyazova Zulfiya Aitbayevna**

Methodology for Preparing Blind and Visually Impaired Children for Family and  
Neighborhood Relations in the Process of Educational Work..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**JUMANIYAZOVA ZULFIYA AITBAYEVNA**

**TARBIYAVIY ISHLAR JARAYONIDA KO‘ZI OJIZ VA ZAIF KO‘RUVCHI**  
**BOLALARNI OILAVIY-QO‘SHNICHILIK MUNOSABATLARIGA**  
**TAYYORLASH METODIKASI**

**13.00.03-Maxsus pedagogika**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Ped11081 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz/uz ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdalova Sayyara Rustamovna**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xaliqov Azamat Qahramanovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc),  
dotsent

**Teshaboyeva Feruza Raximovna**  
Pedagogika falsafa bo'yicha doktori  
(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «3» 04 soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspi.uz)


Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (458 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «19» 03 da tarqatildi.

(2026-yil «19» 05 dagi 12 - raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**F.U.Qodirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

  
**I.D.Qodirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

  
**D.O.Ximmataliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo hamjamiyati globallashtirish jarayonlarini boshdan kechirayotgan hozirgi davrda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini modernizatsiya qilish, ularning mazmuni va sifat ko'rsatkichlarini xalqaro talablarga mos ravishda takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Ijtimoiy-madaniy faoliyatini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda oilaviy-qo'shniçilikni rivojlantirishda YUNESKO, Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi (AQSh), Rossiyaning Uzlüksiz ta'lim instituti, European University Institute, Max Plank Institute kabi nufuzli xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarining ilmiy tadqiqot natijalari muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda oilaviy-qo'shniçilik muhitida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni tizimli va barqaror rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, mazkur yo'nalishda mavjud pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish vazifalari dolzarbligicha qolmoqda.

Jahonda ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini yanada takomillashtirishda hamda oilaviy-qo'shniçilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ta'lim muassasalari va mahallalarning oilalar bilan hamkorligining ustuvor yo'nalishlarini belgilangan holda oilaviy-qo'shniçilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, texnologik modellashtirish, tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, oilaviy-qo'shniçilik jamiyatida tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishning rivojlanganlik darajalarini baholash mexanizmini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori ijtimoiy sohani ham tubdan isloh qilish, uning mazmun-mohiyatini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish"<sup>1</sup> bosh maqsad sifatida belgilanishi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlarga yangicha yondashuvni talab etadi. Mazkur ustuvor vazifalar oilaviy-qo'shniçilik jamiyatida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni tizimli, izchil va samarali rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ularni raqamli ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish, jarayonni ilmiy asosda texnologik modellashtirish, tarbiyaviy faoliyatning metodik ta'minotini boyitish hamda mazkur yo'nalishda qo'llanilayotgan texnologiyalarni yanada takomillashtirish zaruriyatini yaqqol namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2022. – B.39. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

to'g'risida" Farmoni, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 18-apreldagi PQ-209-son "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirishda ta'lim va tarbiyaning roli va ta'limda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish muammolari bo'yicha olimlardan M.Ayupova, N.Dadaxo'jayeva, L.Mo'minova, D.Nurkeldiyeva, L.Nurmuhammedova, U.Fayziyeva, G.Shoumarov, F.Qodirovalar, ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammolari bo'yicha N.Azizxo'jayeva, U.Begimqulov, X.Ibragimov, J.Yo'ldoshev, Sh.Mardonov kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

MDH olimlaridan D.Bogayavlenskaya, M.Govorov, T.Egorov, L.Novikova, I.Plotnik, K.Abulxanova-Slavskaya, A.Brushlinskiy, V.Davidov, B.Lektorskiy, E.Kamaldinova, L.Kuznyetsova, R.Litvak, M.Poddubnaya, E.Titova, E.Xarlanova va boshqalar mahalla sharoitida yoshlarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, oilaviy munosabatlarni rivojlantirishda ta'lim va tarbiyaning roli bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan L.Feerbax, I.Fichte, E.Erikson, V.Vildenband, A.Fisher, E.Meyman, S.Kogan, I.Robert, K.Rodgers, N.Sizintseva kabi olimlar olib borgan ilmiy tadqiqotlari oilaviy-qo'shniçilik munosabatlarini rivojlantirishda ma'naviy qadriyatlarining o'rni bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2022-2026-yy).

**Tadqiqotning maqsadi** tarbiyaviy ishlar jarayonida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shniçilik munosabatlarga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tarbiyaviy ishlar jarayonida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shniçilik munosabatlariga tayyorlashning pedagogik-psixologik shart-

sharoitlarini aniqlash;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashda tarbiyaviy mashg'ulotlarning korreksion-didaktik imkoniyatlarini ochib berish;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashning korreksion-pedagogik modelini ishlab chiqish;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashning kompensatsion-rivojlantiruvchi texnologiyalarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida tarbiyaviy ishlar jarayonida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning o'zaro oilaviy-qo'shnicilik munosabatlarga tayyorlash jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Andijon, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahridagi "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining jami 112 nafar ko'rishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilar jalb etildi.

**Tadqiqotning predmetini** tarbiyaviy ishlar jarayonida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlarga tayyorlashning mazmuni, shakl, vosita va metodlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa, umumlashtirish, savol-javob, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, makonda mo'ljal olishga o'rgatuvchi imitatsion-audiovizual vositalardan foydalanish, tarbiyaviy mashg'ulotlarning didaktik funksiyalariga mos bo'lgan korreksion konsentrlarda adaptivlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashda tarbiyaviy mashg'ulotlarning korreksion-didaktik imkoniyatlari, etik va huquq normalarini tiflosharxlash sharoitida o'rgatuvchi differensial metodikalarni kompensator-kommunikatsiya jarayonida qo'llash hamda kinestetik ta'sir darajalariga ko'ra optimallashtirish asosida ochib berilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashning korreksion-pedagogik modeli, eshitish va taktil sezuvchanlikni stimullovchi ijtimoiy-emotsional ta'lim muhitida o'quvchilarning ijtimoiy-akademik faoliyatini axloqiy prognoz indikatorlari bo'yicha tashkil etish ustuvorligida ishlab chiqilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashning kompensatsion-rivojlantiruvchi texnologiyalarini interaktiv-kommunikativ, faol-amaliy va namunaviy kabi kishilik munosabatlari modellarini emotsional idrokni tiflokinestetik ta'sirda rivojlantirish paralleli asosida individual qo'llash orqali takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarda oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari

aniqlashtirilgan;

tarbiyaviy ishlar jarayonida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlarga tayyorlashda tarbiyaviy mashg‘ulotlar (“Mehmon-mehmon”, “Quvnoq qo‘shnijonlar”, “Manzilli mo‘ljal”, “Mahallada uchrashamiz-yo‘l top” metodlari) ning korreksion-didaktik imkoniyatlari ochib berilgan;

ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlariga tayyorlashning korreksion-pedagogik modelini ishlab chiqilib, “Oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlarda tarbiyaviy ishlar tizimini rivojlantirish” nomli monografiya nashr etilib amaliyotda qo‘llanilgan;

ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlariga tayyorlashning kompensatsion-rivojlantiruvchi texnologiyalari takomillashtirilgan;

Tarbiyaviy ishlar jarayonida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlarga tayyorlashga oid “Pedagogik texnologiya” nomli darslik ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlar materiallari to‘plami, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarbiyaviy ishlar jarayonida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlariga tayyorlashni metodik jihatdan rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ta‘minlanganligi, pedagogik modeli ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta‘lim klasteri muhitida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlarga tayyorlashda tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishga qaratilgan “Oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlarda tarbiyaviy ishlar tizimini rivojlantirish” nomli monografiya va “Pedagogik texnologiya” darsligi ishlab chiqilgani va amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tarbiyaviy ishlar jarayonida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlariga tayyorlashga oid ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

Tarbiyaviy ishlar jarayonida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlariga tayyorlashni uslubiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlariga tayyorlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini yaratish makonda mo‘ljal olishga o‘rgatuvchi imitatsion-audiovizual vositalardan foydalanish tarbiyaviy mashg‘ulotlarning didaktik funksiyalariga moslashtirish korreksion konsentrlarda adaptivlashtirish asosida takliflar “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik kompetentligi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 7-oktyabrdagi 387-son ma‘lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan ilmiy nashrlar oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishga xizmat qilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashda tarbiyaviy mashg'ulotlarning korreksion-didaktik imkoniyatlarini etik va huquq normalarini tiflosharxlash sharoitida o'rgatuvchi differensial metodikalarni kompensator-kommunikatsiya jarayonida, kinestetik ta'sir darajalariga ko'ra optimallashtirishga oid tavsiyalari "Inklyuziv ta'lim, Gospital pedagogika" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 28-noyabrdagi 6918-son ma'lumotnomasi). Natijada pedagogik model ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlarga tayyorlashda tarbiyaviy ishlarini uslubiy jihatdan tizimli rivojlantirishga xizmat qilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashning korreksion-pedagogik modeli, eshitish va taktil sezuvchanlikni stimullovchi ijtimoiy-emotsional ta'lim muhitida o'quvchilarning ijtimoiy-akademik faoliyatini tashkil etishga oid takliflar "Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga signdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 22 dekabrdagi 8297-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarning axloqiy prognoz indikatorlari bo'yicha tashkil etishga doir metodik tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan. Natijada, o'quvchilarga o'z yaqinlari hamda atrofdagi tengdoshlari va kattalar bilan bevosita muloqot qilish, mahalla hayotida ishtirok etish tajribasi yaratildi va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganini his etishlariga zamin yaratildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

"Kirish" qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanib, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti aniqlanib, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tarbiyaviy ishlar jarayonida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda oilaviy-qo'shnicilik munosabatlarining ijtimoiy-pedagogik tavsifi hamda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlash korreksion-pedagogik

muammo sifatida ilmiy tahlil qilingan.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasini hal etish mazkur toifa bolalarda kishilik jamiyatida yashashga moslashish ko'nikmalarini erta shakllantirishni taqozo etadi. Ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni oilaviy-qo'shnichilik munosabatlariga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida tavsiflanadi.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnichilik munosabatlariga tayyorlashning korreksion-rivojlantiruvchi shart-sharoitlari, texnologiyalarini takomillashtirish maqsadida tiflopedagogik izlanishlar, tajribalar tahlil qilindi. Natijada, ko'zi ojiz bolalarni ijtimoiy munosabatlarga, shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur xatti-harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishiga erta va samarali tayyorlaydigan mexanizmlar sifatida oilaviy-qo'shnichilik munosabatlari yetakchilik qilishi quyidagi holatlarda asoslab berildi: 1) uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi qo'shning yaxshi",-degan naql qadimdan o'z ildiziga ega xulosadir. Chunki inson qo'shnilari bilan qanchalik ijobiy munosabatda bo'lsa, shunchalik uning ijtimoiy to'siqlariga tez yechim topiladi. Qo'shni begona, biroq unga yaqin. Begonalar(mahalladoshlari)ning qiziqishlari, uy yumushlari va farzandlar tarbiyasidagi tajribalari o'z-o'zidan yuzaga chiqib turuvchi tavsiflardir. Bu tavsiflarni ko'zi ojiz bola eshitib, his qilib yashaydi. Ko'chada harakatlanganda ham qo'shnilarga tez-tez duch kelinadi. Ular bilan o'zaro muloqotga kirishiladi. Shu jarayon ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni begonalar bilan muloqotga kirishishga va odamlarning maqsadlari hamda aksi ta'sir munosabatlarining mohiyatini tushunishga o'rgatadi; 2) qarindoshlar aslida ko'zi ojiz bolani avaylashga harakat qilishadi. Natijada ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar buni sezgan holda o'z ehtiyojlarini tezroq qondirish maqsadida bu vaziyatdan foydalanishga odatlanadi. Shuning uchun aynan qarindoshlik munosabatlariga nisbatan, qo'shnichilik munosabatlari ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashda muhim va yetakchi omil sanaladi; 3) qarindoshchilik mikromuhit sifatida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ijtimoiylashuvida muhimdir. Mikromuhitning makromuhitga o'tishida aynan qo'shnichilik munosabatlari kengroq ta'sir doirasiga egaligi bilan ahamiyatlidir; 4) qo'shnichilik munosabatlari ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni ogohlikka tayyorlashda ham erishish mumkin bo'lgan natijalarni qo'lga kiritishda ijtimoiy-didaktik imkoniyatlarga egadir; 5) milliy urf-odatlarimizda qo'shnilar, eng yaxshi dalolatchilardir. Ya'ni ko'zi ojiz bola qanchalik qo'shnichilik munosabatlariga tayyor bo'lib, o'zini har tomonlama namoyon etishga o'rgansa, shunchalik bu bolaning kelajakdagi oilaviy hayotini qurishda ham muayyan to'siqlarga erta yechim topiladi. Qo'shnilar bu ko'zi ojiz inson haqida ijobiy fikrlarni atrofdagilarga o'rtoqlashadi. Natijada ko'zi ojiz bolaning oilaviy hayot qurishiga ijobiy ta'sirlarning kengayishiga erishiladi.

Keltirilgan asoslar aynan milliy va xorijiy amaliyot tahlillariga asoslangan holda shakllantirildi. Har qanday munosabat ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyor bo'lishini ta'minlashda alohida o'ringa egadir. Qo'shnichilik munosabatlari bizning mamlakatimizda va qo'shni davlatlarda ham o'ziga xos ijtimoiy-ma'naviy odatlar darajasida insonlarning hayotida muhim omil sifatida tan

olinadi. Shuning uchun ham “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” naqli tarbiya amaliyotida ancha muqimlashgan g‘oyaga aylangan. Demak, aynan qo‘shnichilik munosabatlariga ko‘zi o‘jiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni maqsadli tayyorlash masalasi ham metodik, ham ijtimoiy-pedagogik jihatdan tadqiqqa tortilishi lozim bo‘lgan muammo sifatida tadqiqotimizning konseptual mo‘ljali hisoblandi. Mazkur toifa bolalarni oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlariga tayyorlashda ularning pedagogik-psixologik rivojlanishi, tiflopedagogik strategiyalarning korreksion-kompensator yo‘nalganligi kabi o‘ziga xos jihatlarni inobatga olinadi. Mazkur jarayonlarni tashkil etish bo‘yicha qator ilmiy qarashlar mavjud.

Interfaol tarbiya shakllari va ijtimoiy loyihalarni auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida tizimli qo‘llash (G.Kinjayeva), inklyuziv tayyorgarlikda ta‘lim klasteri muhitining ta‘minlanishi (M.Sattorova), ma‘naviy tiklanish va ma‘naviy qadriyatlarni rivojlantirish (A.Alliyarov, M.Bo‘ronov), bolaning psixologik rivojlanishi chiziqli emas, balki motivatsion ehtiyoj hamda o‘quv-biluv faoliyatiga bog‘liq holda spiralsimon oshadi (D.Elkonin), nogironligi bo‘lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish ularning to‘laqonli turmush kechirish hamda o‘z huquqlari va salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish imkonini beradi (O.Usanova), ularni o‘qitishdan maqsad jamiyatda bemalol muloqot qilishga o‘rgatishdir (A. Peter, Jann), o‘quv predmetini o‘rgatish nutqqa o‘rgatish bilan parallel olib borilishi lozim (I. Fatter), erta tashxis, mos ta‘lim turiga jalb etish, oiladagi ta‘lim va qo‘shnichilik munosabatlarini inobatga olish, ya‘ni “Yaqin rivojlanish zonasi”ni aniqlash (L.Vigotskiy) mazkur toifadagi bolalar ham sog‘lom bolalar kabi ikki, ya‘ni biologik va ijtimoiy omillar ta‘sirida shaxs sifatida shakllanadi (M.Klarin).

Yuqoridagi ilmiy qarashlarga tayangan holda, qarindoshchilik mikromuhit sifatida ularning ijtimoiylashuviga ta‘sir ko‘rsatsa, qo‘shnichilik munosabatlari ko‘zi o‘jiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni ogohlikka tayyorlashda ham erishish mumkin bo‘lgan natijalarni qo‘lga kiritishda ijtimoiy-didaktik imkoniyatlarga ega bo‘lib, oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlari bu– shaxsning oila a‘zolari va qo‘shnilar bilan o‘zaro hurmat, ijtimoiy mas‘uliyat, axloqiy me‘yorlar hamda madaniy qadriyatlarga asoslangan tarzda muloqot qilishi, kundalik ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini anglash, jamoada faol ishtirok eta olishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy aloqalar majmuasidir, degan xulosaga kelish mumkin.

Zamonaviy maxsus pedagogikada korreksion-rivojlantiruvchi ta‘lim-tarbiya jarayoni nazariyasi hamda amaliyoti, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarning xususiyatlarini o‘rganish masalalarini qamrab olishi kerak. Bunda maxsus maktablarda ta‘limni tashkil etish, maktab va oila hamkorligini ta‘minlash (L.Nurmuhamedova, D.Sultonova), hayotda jismoniy nogironlikning oldini olish va jamiyatda ijtimoiy nogironlikni kamaytirish masalalari ustuvordir. Bugungi kunda 89 ta maxsus ta‘lim muassasalarini tamomlab chiqayotgan 73 foiz bitiruvchilar keyingi bosqich ta‘limga jalb etilmayapti. Natijada maktabni bitirib chiqqan bolalarning aksariyati oilada yoki turli vaziyatlar va hayot jabhalarida o‘zgalarning yordamiga muhtoj bo‘lib qolmoqda. Pirovardida, o‘zgalarning ko‘magi ostida yashab, o‘z ehtiyojlarini boshqalarning sa‘y-harakatlari evaziga qondirishga o‘rgangan o‘quvchi ta‘limdan so‘ng mustaqil hayotda qator to‘siqlarga uchrashi tabiiy holdir.

Ijtimoiylashuv individning shaxsga aylanish jarayoni ostida kechuvchi qayta aloqaning sifati bilan bog'liq tushuncha hisoblanadi. Shaxs hayoti davomida ehtiyojlarini qondirishi, o'zi va o'zgalar manfaatlarini ko'zlagan holda ma'lum harakatlarni amalga oshirishi uning boshqa insonlar bilan o'zaro muloqoti orqali amalga oshiriladi. Bu masala qadimdan muhim hisoblangan. Inson jamoalari va jamiyat kishilarning yashashi hamda kamolotga erishishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'ilishi (Forobiy), insonning ijtimoiy mohiyatini faqat uning mehnat qilish qobiliyati bilangina emas, balki o'zaro aloqa va o'zaro yordam ko'rsatishlari bilan, til va tafakkurning ana shu jarayondagi rolini belgilashi (Ibn Sino) ta'kidlangan. Demak, qadimdan shaxsning yashash joyidagi muhit, oilaviy-qo'shnichilik jamiyati shaxsning rivojlanishiga, uning ijtimoiylashuvi, axloqiy munosabatlari, xulq-atvori va muloqot qobiliyatlari hamda ijtimoiy faoliyat tajribasiga faol ta'sir ko'rsatishi asoslangan.

Shunday qilib, ta'lim muassasalari va ta'limning boshqa subyektlari umumiy maqsadlarini belgilovchi tamoyillar, ijtimoiy talablar asosida yangi yondashuvlar yuzaga kelayotgan pedagogik paradigmlar muayyan davrda ta'lim tizimining maqsad, mazmun va metodlarini belgilovchi konseptual modelni belgilaydi. Ta'lim jarayoni nafaqat ta'lim muassasalarida, balki oilaviy-qo'shnichilik munosabatlarida ham ta'lim mazmuni va metodikalarini belgilovchi konsepsiyalar zarurligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Pedagogik paradigma ta'lim jarayonini tashkil etishning metodologik asosini belgilovchi ilmiy model bo'lib, u o'quvchi, o'qituvchi va o'quv jarayoni o'rtasidagi munosabatlarni aniqlaydi (V.Krayevskiy, A.Xutorskoy) degan qarashlar ham mavjud. Demak, oilaviy-qo'shnichilik jamiyati fenomenini, uning o'ziga xosligini va oilaning yashash joyida ijtimoiy tarbiya strategiyasining xususiyatlari, turli bo'ysunuvdagi ijtimoiy institutlarning o'zaro ta'sirini hamda yashash joyidagi aholi va uning tarkibiy birligi – oilaviy-qo'shnichilik jamiyati bilan ijtimoiy-tarbiyaviy ishlar tizimini rivojlantirish mexanizmlarini pedagogik jihatdan asoslaydi.

Nogiron bolalarda kognitiv jarayonlarning yuqori shakllari (diqqat, mantiqiy fikrlash va nutq, xotira) rivojlanishi deyarli me'yorida bo'lishi (A.Litvak), ular bilan korresion ishlarni o'z vaqtida boshlash muhim ekanligi (V.Deniskina), bolalarga nisbatan yaqinlari tomonidan ko'rsatiladigan yordam shunday tashkil etilishi kerakki, uning natijasida ma'lum vaqt o'tgach, bola o'zi uchun mustaqil harakat qila oladigan bo'lishi zarurligi (Shpek Otto), ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga korresion yordam tizimida psixofizik rivojlanishidagi buzilishlar va og'ishlar iyerarxiasini inobatga olish lozimligi (L.Plaksina) hamda oilaviy hayotga tayyorlash, oila va rashk, oila va ajralish, oila va suitsid, oilada zo'ravonlik hamda oilaviy munosabatlar masalalari ham muhim ekanligi (R.Shomahmudova, G'.Shoumarov, M.Hakimova) olimlar tomonidan alohida o'rganilgan.


Rivojlanishidagi nuqsonlarga qaramasdan, har bir bola o'ziga xos bir olamni tashkil qiladi. Bu jarayonda erta korreksion yordam ko'rsatish, oila-qo'shnichilik munosabatlarini yo'lga qo'yish, pedagoglar esa ularni nimaga va qanday o'rgatishlari bo'yicha aniq tasavvurlarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Bunda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnichilik munosabatlariga tayyorlashda tarbiyaviy mashg'ulotlarning korreksion-didaktik imkoniyatlaridan foydalanish

xususan, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun etik va huquqiy normalarni tiflosharhlash sharoitida o'rgatuvchi differensial metodikalarni samarali qo'llash kerak bo'ladi. Ular bilan muloqotdagi o'ziga xosliklarni inobatga olish, kompensator-kommunikatsiya jarayonida kinestetik ta'sir darajalariga ko'ra pedagogik faoliyatni optimallashtirish zarur bo'ladi

Dissertatsiyaning **“Tarbiyaviy ishlar jarayonida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy-qo'shnichilik munosabatlariga tayyorlash metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni oilaviy va qo'shnichilik munosabatlariga tayyorlash jarayoni optimallashtirilgan bo'lib, bunda pedagogik jarayonning samaradorligi, bolalarning ijtimoiy va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish, metodik vositalar va tashkiliy shakllarning mosligi ustuvor ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan. Bolalarga ta'sir qilishda oilaviy va qo'shnichilik tajribasi, motivatsion va ijtimoiy mashg'ulotlar, modellashtirish va tajriba-sinovlar orqali individual yondashuv qo'llanilgan, rivojlanish holati esa diagnostika va baholash bilan kuzatilgan.

Modelda ustuvorlik ijtimoiy va motivatsion ko'nikmalarni shakllantirish, refleksiv qobiliyatni rivojlantirish, oilaviy-munosabatlarga moslashish va pedagogik jarayonni tizimli va maqsadli tashkil etishga berilgan. Mazkur model inklyuziv ta'lim jarayonida pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, kontekstli ta'lim texnologiyalari vositasida bolalarning ijtimoiylashuvi va oilaviy-qo'shnichilik munosabatlarini tizimli shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini o'z ichiga oladi.

E.Belkina, L.Stolyarenko va I.Samiginaning tadqiqotlariga ko'ra, oilaviy-qo'shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlar murakkab ko'p bosqichli pedagogik tizim va ijtimoiy-madaniy jarayonning ajralmas qismi sifatida ko'riladi, uning asosiy komponentlari maqsad, mazmun, tashkiliy shakllar va natijadan iborat. Modellashtirish nazariyasi V.Shtoffning ishlari bilan tasdiqlanib, model voqelikning ayrim jihatlarini aks ettirish, qayta tiklash va kasbiy faoliyat funksiyalarini ishga tushirish vositasi sifatida qaraladi. Modellar material va ideal turlarga bo'linadi, pedagogikada esa ular o'rganilayotgan ob'yektning funksiyalari va aloqalarini takrorlaydigan tizim sifatida qo'llanadi. L.Babaxodjayevaning yondashuviga ko'ra, inklyuziv ta'lim sharoitida mutaxassislar kompetentlikni rivojlantirish modeli maqsad, mazmun, protsessual va natijaviy komponentlardan iborat bo'lib, J.Usarov esa, model o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, ularning ehtiyoj va qiziqishini hisobga olish, pedagogik va ijtimoiy-pedagogik tashxisni amalga oshirish mexanizmi ekanligini ta'kidlaydi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy pedagogik tajriba asosida ishlab chiqilgan modelda maqsad komponenti bolalarning oilaviy-qo'shnichilik munosabatlarini shakllantirish vazifalarini belgilasa, mazmun komponenti motivatsion, integrativ, kontekstli va adaptiv ta'limiy funksiyalarni, metodologik yondashuvlari esa individual, korreksion, kompensatsion, sensor-integrativ bo'lishini ko'zda tutadi. Jarayon komponentida individual va jamoaviy mashg'ulotlar, topshiriqlar tizimi, interaktiv o'yinlar, modellashtirish, binar-faoliyat va refleksiv yondashuv asosida pedagogik faoliyat tashkil qilinadi, bu orqali bolalarning oilaviy-qo'shnichilik munosabatlariga motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv tayyorgarlik darajalarini baholash mezonlari tanlanadi.



**1-rasm. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning oilaviy qo'shnichilik munosabatlarini shakllantirish modeli.**

Diagnostika natijalari bolalarning oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorligini past, o'rta, yuqori darajalarda baholandi. Baholash mezonlariga (motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv) mos holda past (ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarga qo'yilgan talab to'liq bajarilmagan bo'lsa), o'rta (agar, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarga qo'yilgan talab o'rta darajada shakllangan bo'lsa), yuqori (ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarga qo'yilgan talab yuqori darajada shakllangan bo'lsa) tarzda baholanadi. Refleksiv yondashuv oilaviy-qo'shnicilik munosabatlarini tizimli rivojlantirishni ta'minlaydi, oila a'zolarining o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shaxsiy yo'nalish natijalari ko'rsatdiki, oilaviy muloqotga e'tibor eng yuqori bo'lib, ishtirokchilarning ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi faolligi oshadi, o'z-o'zini hurmat qilish esa salbiy hissiy holatlarni bartaraf etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu asosda oilaviy-qo'shnicilikni rivojlantirishning vazifalari va mexanizmlari aniqlanib, motivatsiya, tashabbus darajasi, oilaviy qarorlar qabul qilish va optimistik munosabatlarni shakllantirish orqali samarali ta'lim-tarbiya jarayoni ta'minlanadi.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning oilaviy-qo'shnicilik munosabatlarini shakllantirishda adaptiv topshiriqlarni korresion-kompensatsion modellashtirish, mashg'ulotlarning maqsadi, vazifalarini belgilashda o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim shartlardan hisoblanadi.

Modelning jarayon komponentida loyiha ("Mahallada hashar", "Mahallada uchrashamiz - yo'l top", "Navro'z sayli"), o'yin-mashg'ulot ("Quvnoq qo'shnijonlar", "Kamalak"), modellashtirish (obodonlashtirish, dasturxon bezash), binar-faoliyat (tarbiyachi-ota-ona, o'quvchi-tarbiyachi), sensor-integrativ o'yin mashqlarini tashkil etish asosida oilaviy qo'shnicilik munosabatlarini shakllantirish algoritmi aks etgan. Loyihalarda o'quvchilarning darsdan keyingi paytlardagi akademik-ijtimoiy faoliyatini oilalar bilan hamkorlikda tashkil etish yo'lga qo'yildi. Bunda oilaviy-qo'shnicilik munosabatlariga tayyorlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari makonda mo'ljal olishga o'rgatuvchi imitatsion-audiovizual vositalarni tarbiyaviy mashg'ulotlarning didaktik funksiyalariga mos korreksion konsentrlar (lug'at, shaxsiy xulosa, ijtimoiy ko'nikma)da adaptivlashtirish asosida aniqlashtirildi.

